<i>Yuldosheva Sadoqat Iloxmonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq rivojlanishida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning me'yoriy-huquqiy asoslari	801
<i>Djamolova Noila Zayniddinovna</i>	
Ta'lim va tarbiya jarayonida ulug' mutafakkirlarning odob va axloqga oid ilmiy merosidan foydalanishning o'ziga xos jihatlari	807
<i>Ergasheva Dilnoza Mamasharifovna</i>	
Tayyorlov guruh bolalarini kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari	810
<i>G'afforova Hurriyat Yangiboyevna</i>	
Bo'lg'usi o'qituvchilarni media ta'limdan foydalanishga o'rgatish	814
<i>G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi</i>	
Bo'lajak pedagog kadrlarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari	817
<i>Jalolova Feruza Mirkamol qizi</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirish muammolari va yechimlari	822
<i>Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasb motivlari barqarorligiga guruhii jipslikning ta'siri	827
<i>Jumayeva Malika Aliyevna</i>	
Jismoniy tarbiya darslari jarayonida maktab yoshidagi bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish	831
<i>Kamardinov Baxtiyor Kamardinovich, Azimqulova Shaxlo Baxtiyor qizi</i>	
Maktab va oila hamkorligida boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini she'r yodlash qobiliyatini shakllantirish	837
<i>Karimova Shoxsanam Islomovna</i>	
Turkistondagi jadidchilik harakatining o'ziga xosligi va maktablardagi ta'lim tizimi	840
<i>Karimova Zarrina</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshqaruvida ijobiy ijtimoiy munosabatlar muhitini shakllantirishdagi tashqi ta'sirlar	843
<i>Maryam Raximova</i>	
Tarbiya ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida: an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar uyg'unligi	848
<i>Muhammadiyeva Feruza To'raikulovna</i>	
From Access to Success: Advancing Inclusive Education in Universities	852
<i>Nutfiyeva Dildora</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kasbiy tayyorgarligining pedagogik mexanizmlari	856
<i>O'tasheva Lola Shoto'rayevna</i>	
Kognitiv yondashuv asosida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida ingliz tilini tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligini o'rganish	859
<i>Qudratova Sultonposhsha Otabek qizi</i>	
Klinik amaliyotda tibbiyot talabalarining stressni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishning innovatsion metodlari	864
<i>Sobirov Qobuljon G'ofirjon o'g'li</i>	
Ingliz tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o'qitishda leksik derivatsiyalarning ahamiyati	868
<i>Abdusattarov Mavlon Sherali o'g'li</i>	
Tasavvuf adabiyotining paydo bo'lish omillari	872
<i>Ahmadova Shohsanam Sodiq qizi</i>	
Ichki ishlar akademiyasi kursantlarining favqulodda vaziyatlarda qaror qabul qilish jarayonini takomillashtirishning nazariy metodologik asoslari	875
<i>Kadirova Sayyora Madaminovna</i>	
Maktab fizika kursini o'qitishda ekologik tarbiyani shakllantirishning pedagogik asoslari	878
<i>Karimov Abdurahmonjon Ma'rufjon o'g'li</i>	
Til o'rgatishda zamonaviy usullardan foydalanishning samaradorligi va joriy etish strategiyalari	882
<i>Muxammadjonova Nafisa Rustam qizi</i>	
O'quvchilarning fizika faniga oid umumiy kompetensiyalarini shakllantirishda elektron va mobil ta'lim platformalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari	885
<i>Najmiddinova Murat Kamolovich</i>	
Sun'iy intellekt asosida talabalarining falsafiy tafakkurini rivojlantirishning metodologik asoslari	890
<i>Nodirbekov Furqatbek Umarjon o'g'li</i>	



Jadidlarning milliy ta'lim paradigmasi asosida OTM talabalarida milliy identlikni (o'zlik) rivojlantirish.....	894
<i>Ortiqboyev Soxibjon Inomjon o'g'li</i>	
Shifokor shaxsini tarbiyalashda empatiya va axloqiy qadriyatlarning o'rni	897
<i>Tajiboyeva Odinaxon Rustamjon qizi</i>	
Features of Flipped Learning to Improve Speaking Proficiency	901
<i>Tojiyeva Matluba Mahmud kizi</i>	
Socio-Cultural Approach to Teaching English to Students of Economic Specialties	904
<i>Xamdamova Nilufar Esanovna</i>	
Pedagogik mahorat	908
<i>Zakirova Difuza Ergashboyevna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	912
<i>Xabilova Sitara Tursunmurod qizi, Payg'amova Husnida</i>	
Korpus asoslangan til pedagogikasini yuqori kurs ingliz tili ta'limiga joriy etishning nazariy jihatlari.....	915
<i>Toshpulatova Mexriniso Kilichevna</i>	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy rivojlantirishni pedagogik muammo sifatida o'rganish	919
<i>Axmedov Juraboy Raxmonberdiyevich</i>	
Talabalarning bilim o'zlashtirish darajasi va faolligini oshirishda differensial yondashuvning ahamiyati	925
<i>Sultonova Farangiz Alisherovna</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning yozuv malakasini oshirish yo'llari	929
<i>Boltayeva Barno Isakulovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni milliy ruhda tarbiyalash metodikasini rivojlantirish.....	932
<i>Qosimova Aziza Umarali qizi</i>	



BO'LAJAK MUHANDISLARNI KASBIY RIVOJLANTIRISHNI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA O'RGANISH

Axmedov Juraboy Raxmonberdiyevich

Jizzax politexnika instituti

"Kompyuter va dasturiy injiniring" kafedrası v.b.professori

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lim tizimida axborot-ta'lim muhiti orqali muhandislik tafakkuri, mustaqil ishlash ko'nikmalari, texnologik savodxonlik va kasbiy moslashuvchanlik kabi xislatlarni shakllantirish uchun maxsus metodik tizim ishlab chiqilgan. Maqola ilmiy-nazariy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish bilan shug'ullanuvchilar uchun asoslangan holda tayyorlangan.

Kalit so'zlar: axborotlashtirilgan ta'lim muhiti (ATM), muhandis-pedagoglar, dasturiy-didaktik ta'minot, raqamli ma'lumotlar, kasbiy moslashuvchanlik, texnologik savodxonlik, mustaqil ishlash ko'nikmalari, zamonaviy muhandislik ta'limi, pedagogik hamkorlik.

Abstract: The article develops a special methodological system for the formation of such qualities as engineering thinking, independent work skills, technological literacy, and professional flexibility through the information and educational environment of the higher education system. The article is based on the experience of specialists involved in the implementation of scientific and theoretical developments into practice.

Key words: information-oriented learning environment (ILE), engineering teachers, software and didactic support, digital information, professional flexibility, technological literacy, independent work skills, modern engineering education, pedagogical cooperation.

Аннотация: В статье разработана специальная методическая система формирования таких качеств, как инженерное мышление, навыки самостоятельной работы, технологическая грамотность и профессиональная гибкость посредством информационно-образовательной среды системы высшего образования. Статья основана на опыте специалистов, занимающихся внедрением научно-теоретических разработок в практику.

Ключевые слова: информационно-образовательная среда (ИОС), преподаватели инженерных специальностей, программно-дидактическое обеспечение, цифровая информация, профессиональная гибкость, технологическая грамотность, навыки самостоятельной работы, современное инженерное образование, педагогическое сотрудничество.

KIRISH

Muhandislarni tayyorlashda axborot muhiti deganda biz axborot infratuzilmasini, AKT vositalarini va ta'limni tashkil etishning interfaol shakllarini rivojlantirishga asoslangan ochiq pedagogik tizimni tushunamiz, bu esa muhandislarni tayyorlashda ta'lim jarayoni subyektlarining faol pedagogik o'zaro ta'siriga erishishga yordam beradi. Shuningdek, axborot-ta'lim muhitida bo'lajak muhandislarni kasbiy rivojlantirishni pedagogik muammo sifatida o'rganar ekanmiz, muhandislarni kasbiy rivojlantirish muammosi bilan birga "muhandis" atamasini tahlil qilish zarurati tug'iladi. Muhandis atamasi O'zbekistonda qariyb ikki ming yildan beri mavjud. Muhandislik mehnati, boshqa mehnat turlari kabi, o'ziga xos xususiyatlarga ega. Asosan texnologik jarayonning o'zi va uning alohida elementlari hamda u haqida turli shakllarda namoyon bo'luvchi axborot – muhandisning mehnat predmeti hisoblanadi.

Muhandis texnik va ilmiy bilimlar, amaliy ko'nikma hamda kasbiy malakalarga tayangan holda ishlab chiqarishning texnologiyalar, mashinalar, inshootlar, tizimlar, asboblari, materiallar va jarayonlar sohasida ixtiro qilish, loyihalash, ishlab chiqish, qurish, texnik xizmat ko'rsatish va optimallashtirish malakasiga ega bo'lgan oliy ma'lumotli mutaxassis faoliyatini bajaradi. Muhandislik kompetensiyasiga ega mutaxassis o'z bilimlarini izchil boyitib boradi, yangi axborotlarni o'zlashtiradi, davr talablarini chuqur anglaydi, yangi bilimlarni izlab topadi, ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali foydalanadi. Muhandis mutaxassislarining kasbiy vazifalarining tarkibiy va axborot tahlili ularning muhandislik faoliyatida ilmiy va tajriba ishlarini tashkil etish, kasbiy



muhim ma'lumotlarni analitik va sintetik qayta ishlash, fundamental bilimlar va majburiy fan sohalarida faoliyatning umumlashtirilgan algoritmlari asosida amaliy muhandislik muammolarini hal qilish qobiliyati bilan bog'liq o'zgarmas tarkibiy qismini aniqlashga imkon beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan zamonning tendensiyalariga moslashuvchan muhandislarni tayyorlashda xorijiy olimlar tomonidan bo'lajak muhandislarni kasbiy rivojlantirish borasida uchrayotgan muammolar, muhandislarni tayyorlashdagi asosiy tadqiqot yo'nalishlari, pedagogik muammolarning yechimi sifatida berilgan takliflari va muhandislik ta'limiga tatbiq qilinishi quyida tahlil qilib chiqildi. David Schön muhandislar, arxitektorlar va boshqa mutaxassislar kasbiy faoliyat jarayonida tayyor bilimlardan ko'ra, o'z tajribasini tahlil qilish orqali yangi bilim hosil qilishini ta'kidlaydi. Muhandislik ta'limida nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovut talabalar refleksiv fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish orqali bartaraf etilishi mumkinligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, "Reflektiv amaliyot" talabaning o'z faoliyatini tahlil qilishi, xatolarini anglab, keyingi ishida tuzatishlar kiritishiga imkon beradi. F. Perrenoud muhandislik kompetensiyalarini shaxsning bilim, ko'nikma va munosabatlari integratsiyasi sifatida talqin qiladi. Unga ko'ra, muhandislik ta'limida bilimlar amaliy vazifalarga qo'llanilmasa, haqiqiy kompetensiya shakllanmaydi. O'quv dasturlari ishlab chiqarishdagi real vazifalar bilan integratsiya qilinishi lozimligini ta'kidlaydi. AQShning Muhandislik va Texnologiyalar uchun Akkreditatsiya Kengashi (ABET - Accreditation Board for Engineering and Technology) muhandislik, muhandislik texnologiyasi, hisoblash, amaliy fanlar va tabiiy fanlar bo'yicha o'rta ta'limdan keyingi ta'lim dasturlarini akkreditatsiya qiluvchi nodavlat tashkilot bo'lib, muhandislik dasturlarini ishlab chiqarish talablariga moslashtirish, kompetensiyalarni xalqaro standartlar asosida baholashda va muhandislik ta'limining sifatini baholashda bitiruvchining kasbiy natijalari asosiy mezon sifatida olinadi.

Corina Pacheraga (Avstriya) fikricha, muhandislik ta'limi – bu bozor va jamiyat rivojlanishiga sarmoya kiritishdir. Muhandislik ta'limini yaxlit qayta yo'naltirishga hissa qo'shadigan empirik muvaffaqiyat omillari odatda parchalangan tarzda o'rganiladi va kompetensiyaga yo'naltirilganlik ko'pincha e'tibordan chetda qoladi, bo'lajak muhandislar faqat texnik bilim bilan cheklanib qolmay, keng kompetensiyalarni egallashi lozim. Maynard H. B. va boshqalar to'rtinchi sanoat inqilobi sharoitida texnologik taraqqiyotni AKT texnologiyalarining kompaniyalarga integratsiyalashuvida ko'rish mumkinligini, bu esa o'z navbatida muhandislarning faoliyat sohasining axborot texnologiyalari bilan kengayishiga olib kelishini e'tirof etadi va muhandislarni tayyorlashda axborot ta'lim muhitini keng qo'llash zarurligini ta'kidlaydi. Ramirez-Mendoza va boshqalarga ko'ra, hozirgi vaqtda ta'lim muassasalari muhandislik ta'limiga zamonaviy tendensiyalar va talablarni muvaffaqiyatli amalga oshirishlari kerak, bu esa muhandislarning ish qobiliyatini, rolini tushunishni va kasbiy farovonligini ta'minlaydi. Ushbu o'zgaruvchan talablar muhandislik intizomi uchun tanish kasbiy ta'lim modellari va tushunchalarini moslashtirishni talab qiladi.

Amaliy tajriba, yangi o'quv vositalari va materiallari, raqamli texnologiyalardan foydalanish, barqaror yondashuvlar, usullar kontseptsiyasi va zamonaviy muhandislik ta'limi 5.0 ga kiritilishi kerak. A. Kolmos va boshqalar oliy ta'limda muhandislikning umumiy kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha tadqiqot ishlarida, garchi 2020-yil o'tgan bo'lsa-da, asosiy tamoyillar va mavzular hali ham saqlanib qolayotganligini va muammolar yanada murakkablashganligini ta'kidlaydi. Bu murakkablik jamiyatning o'zaro bog'liqligi, texnologiyalarning haddan tashqari tez sur'atda rivojlanayotganligi, manfaatdor tomonlarning talablari, yuqori darajadagi noaniqlik va nihoyat, uzluksiz o'zgarishlarga javob berish uchun muhandislik ta'limida uzluksiz ta'lim olish zarurligini ko'rsatadi. Natijada, bo'lajak muhandislardan zukkorlik, ijodkorlik, muloqot, boshqaruv, yetakchilik, chaqqonlik va chidamlilik bilan bog'liq yangi kompetensiyalarni shakllantirish talab qilinadi. Pedagog olimlarning bo'lajak muhandislarni kasbiy rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlari tahlili umumlashtirib quyidagilarni xulosa qilish mumkin.

1-jadval: Pedagog olimlarning bo'lajak muhandislarni kasbiy rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlari tahlili

Olim	Asosiy tadqiqot yo'nalishi	Muhandislik ta'limiga tatbiqi	Tavsiya va yechimlar
David Schön (AQSh)	Reflektiv amaliyot nazariyasi	Talaba nazariyani amaliy vaziyatlarda sinab ko'radi	O'quv jarayonini real loyihalar bilan integratsiyalash
John Dewey (AQSh)	"Learning by doing" (Amal orqali o'rganish)	Muhandislikda laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarga urg'u	Amaliy muhit yaratish orqali kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish
Kolb D.A. (AQSh)	Tajribaviy ta'lim modeli	Muhandislar o'qish jarayonida sinov-eksperiment orqali bilim hosil qiladi	Ta'limni "tajriba – tahlil – nazariya – amaliyot" sikliga qurish
F.Perrenoud Shveysariya	Kompetensiyaviy yondashuv	Muhandislik vazifalarini yechishga yo'naltirilgan o'quv rejaları	"Bilim + amaliyot + moslashuvchanlik" modelini tatbiq qilish



ABET (AQSh)	Natijaga yo'naltirilgan ta'lim	Kasbiy natijalarni aniq mezonlar bilan baholash	Bitiruvchining kompetensiyalarini xalqaro standartlar bo'yicha tekshirish
Corina Pacheraga (Avstriya)	Muhandislik ta'limini yaxlit qayta yo'naltirish	kompetentsiyaga yo'naltirilgan ta'lim	bo'lajak muhandislar faqat texnik bilim bilan cheklanib qolmay, keng kompetensiyalarni egallashi lozim
Maynard H. B.	AKT texnologiya-larining kompaniya-larga integratsiya-lashuvida	muhandislarning faoliyat sohasini axborot texnologiyalari bilan kengayishi	Muhandislarni tayyorlashda axborot ta'lim muhitini keng qo'llash
Ramirez-Mendoza	muhandislik ta'limiga zamonaviy tendentsiyalar va talablarni amalga oshirish	kasbiy ta'lim modellari va tushunchalarini muhandislik ta'limiga moslashtirish	yangi o'quv vositalari va materiallari, raqamli texnologiyalardan foydalanish,
A.Kolmos	oliy ta'limda muhandislikning umumiy kompetensiyalarni rivojlantirish	Ta'limning yangi yondoshuvlari va tamoyillarini amalda qo'llash	bo'lajak muhandislarda zukkolik, ijodkorlik, muloqot, boshqaruv, yetakchilik, chaqqonlik kompetensiyalari.

Xorijiy pedagoglar ta'kidlashicha, muhandislarni kasbiy rivojlantirishda asosiy pedagogik muammo – nazariya va amaliyotning uzilishidir. Ular bu muammoni “tajribaviy o'qitish” va “kompetentsiyaga yo'naltirilgan dasturlar” orqali hal etishni taklif etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak muhandislarni kasbiy rivojlantirish pedagogik muammo sifatida nazariya va amaliyot tafvutini bartaraf etishni, kompetensiyalar tizimini shakllantirishni va innovatsion ta'lim texnologiyalarini keng joriy etishni talab qiladi. Shuning uchun zamonaviy muhandisni tayyorlashni tashkil etish kasbiy rivojlanishda va doimiy takomillashuv jarayonida bo'lgan kelajakdagi mutaxassisning asosiy muhandislik kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi lozim. MDH olimlari muhandislik ta'limidagi pedagogik muammoni, asosan, shaxsiy rivojlanish va kasbiy identifikatsiya yetishmasligi bilan bog'laydi. Ularning fikricha, muhandislik ta'limida individual va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv muhim.

Zamonaviy tushunchada muhandis oliy ma'lumotli mutaxassis bo'lib, nazariy bilimlarga, kasbiy malakalarga va ishchanlik xususiyatlariga tayangan holda texnik, texnologik hamda boshqa tizimlarni belgilangan ish ko'rsatkichlari bilan ishchan holatda saqlash, o'zgartirish va yaratishni ta'minlaydi. Texnik tizimda muhandis – nazariy bilimlarga, kasbiy ko'nikmalarga va ishbilarmonlik sifatlariga suyanib, talab qilingan ish ko'rsatkichli texnik, texnologik va boshqa tizimlarni yaratish, qayta o'zgartirish hamda ularni ishga qobiliyatli holatda tutishni ta'minlaydigan oliy ma'lumotli mutaxassisdir. Respublikamiz pedagog olimlari muammoni, asosan, o'quv jarayonining ishlab chiqarish bilan uzviy bog'lanmaganligi va innovatsion texnologiyalar yetarlicha qo'llanmasligi bilan izohlaydi. Muhandisning ishlab chiqarishdagi aniq vazifalarni malakali tarzda hal qila olish ko'nikmasi uning raqobatbardoshligini, kasbiy moslashuvchanligini va boshqaruv pog'onalarida ilgarilab borishini ta'minlaydi. U ta'lim olish jarayonida mavjud ishlab chiqarish masalalarini bajarishga qanchalik yaxshi tayyorlangan bo'lsa, uch yilgacha davom etadigan moslashuv davri shunchalik tez o'tadi va mutaxassisning kasbiy faoliyati shunchalik muvaffaqiyatli kechadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2024-yil 20-iyun kuni o'tkazilgan “Muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash va oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish” yuzasidan videoselektor yig'ilishida Prezidentimiz bugungi kunda butun dunyoda sanoatda tannarxni kamaytirish masalasi juda dolzarb ekanini ta'kidladi. Xorijiy oliygohlarda “tannarx muhandisligi” (cost engineering) degan fan mavjud bo'lib, hatto kadrlar tayyorlanadi. Shuningdek, “qiyoslash muhandisligi” (benchmarking) orqali eng yaxshi amaliyot va yutuqlar tahlil qilinib, ulardan andoza olinadi va ishlab chiqarishga joriy etish o'rgatiladi. “Qayta muhandislik” (reverse engineering) esa tayyor mahsulotni olib, ishlash mexanizmini bo'laklarga ajratib, mualliflik huquqini buzmaganda, o'xshash mahsulot yaratishni o'rgatadi. Prezident afsus bilan birorta texnika oliygohida bularga o'qitish yo'lga qo'yilmaganini qayd etdi.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, bugungi ilm-fan va ta'lim shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda nafaqat tannarh muhandisligi, qiyoslash muhandisligi, qayta muhandislik bo'yicha alohida muhandislar tayyorlashni yo'lga qo'yish zarurati mavjud, shu bilan bir qatorda muhandislik atamasi qaysi sohaga qo'llanilmasin, u bilan yonma-yon tilga olinadigan zamonaviy atamalar: tannarh muhandisligi (Cost Engineering), qiyoslash muhandis-

ligi (Benchmarking Engineering) va “Qayta muhandislik” (Reverse Engineering) kabi muhandislik ko'nikmalari bo'lajak muhandislarning kasbiy rivojlantirishda e'tiborga olinadigan muhim jihatlaridan biri bo'lishini taqozo qilmoqda. Zero, qaysi sohada muhandislar tayyorlanmasin, o'sha yo'nalishning malaka talablarini chuqur tahlil qilinsa, bo'lajak muhandislarga qo'yiladigan kasbiy kompetensiyalarning ichida sanab o'tilgan tannarh muhandisligi (Cost Engineering), qiyoslash muhandisligi (Benchmarking Engineering) va “Qayta muhandislik” (Reverse Engineering) ko'nikmalariga mos keladigan talablar qo'yilganligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Quyida tannarh, qiyoslash va qayta muhandislik iboralarining ma'nosi va biz tadqiqotimizda tanlab olgan Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish bakalavriat yo'nalishining malaka talablarida keltirilgan kasbiy kompetensiyalaridan mazkur ko'nikmalarga mos talablarni tahlil qilib chiqdik. Tannarh muhandisligi (Cost Engineering) – bu mahsulot, xizmat yoki loyiha qiymatini aniq hisoblash, tahlil qilish va optimallashtirish bilan shug'ullanuvchi muhandislik yo'nalishidir. Tannarh muhandisligining asosiy maqsadlari:

- loyiha yoki mahsulotni iqtisodiy jihatdan samarali qilish;
- resurslardan oqilona foydalanish;
- sifatni saqlagan holda xarajatlarni kamaytirish va narx belgilash uchun asos yaratishdir.

Tannarh muhandisligining asosiy ish jarayonlari:

- xarajatlarni hisoblash – har bir jarayon, material, mehnat va texnologiya bo'yicha aniq hisob-kitob qilish;
- tahlil qilish – qaysi bosqichlarda ortiqcha xarajatlar borligini aniqlash;
- optimallashtirish – texnologiyani o'zgartirish, energiya tejankor uskunalar qo'llash yoki materialni almash-tirish orqali tannarhni tushirish;
- prognoz qilish – kelajakdagi bozor sharoitlariga mos ravishda xarajat va narx o'zgarishini oldindan belgi-lash.

Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish bakalavriat yo'nalishining malaka talablarida keltirilgan kasbiy kompetensiyalardan quyidagilari tannarh muhandisligiga mos keladi:

- ishlab chiqarish jarayonlarining iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish va optimallashtirish;
- texnologik jarayonlar uchun resurslar (xom ashyo, energiya, vaqt) sarfini hisoblash;
- loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish.

Tannarh muhandisligi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tizimlarida xarajatlarni rejalashtirish, hisoblash va optimallashtirish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni talab qiladi. Malaka talabidagi ushbu kompetensiyalar muhandisning iqtisodiy tahlilchi sifatida ishlashiga zamin yaratadi.

Tadqiqotchi olim Rongrong Du (Xitoy) bo'lajak muhandislar zamon taraqqiyotini kuzatib borishi, o'qitish tartibini doimiy ravishda o'rganish va isloh qilish, talabalarning har tomonlama sifati va amaliy qobiliyatini rivoj-lantirishi kerakligini ta'kidlaydi. Shu bilan birgalikda, muallif bo'lajak muhandislarning tannarh muhandisligi bo'yicha kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish uchun malakaviy amaliyotlarni tashkil etish zarurligini qayd etadi. Barry Boehmning fikricha (AQSH), muhandislarni tayyorlashda tannarxini bashorat qilish dasturiy ta'minotlari-dan samarali foydalanish orqali mahsulot tannarxini oldindan taxmin qilish, tannarh muhandisligini o'rgatishda parametrik modellashtirish va bashorat modellari talabalarga axborotlashtirilgan muhitda mustahkam nazariy asos beradi. Buyuk Britaniyalik olim Joas Serugga (Birmingham City University) axborot ta'lim muhitida bo'lajak muhandislarni tayyorlash borasida tadqiqot olib borib, modul asosida tannarh modellarini yaratish uchun onlayn platformalarni ishlab chiqqan va bunda talabalar real amaliy mashqlarni bajarish imkoniga ega bo'lishini ta'kidlagan. Qiyoslash muhandisligi (Benchmarking Engineering) – bu turli texnik tizimlar, konstruksiyalar, uskunalar, ishlab chiqarish jarayonlari yoki texnologiyalarni solishtirish va tahlil qilish orqali ularning eng sama-rali, ishonchli va iqtisodiy jihatdan foydali variantini aniqlashga qaratilgan muhandislik yo'nalishidir. Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish bakalavriat yo'nalishining malaka talablarida mos keladigan kompetensiyalar:

- texnologik jarayonlarni tahlil qilish va ularni ilg'or xorijiy tajriba bilan qiyoslash;
- standartlashtirish va sertifikatlashtirish talablari asosida ishlab chiqarish sifatini baholash;
- yangi texnologiyalarni mavjud tizimlarga tatbiq etish imkoniyatlarini aniqlash.



Qiyoslash muhandisligi – texnologik yechimlarni sifat, samaradorlik, tannarx va ekologik ko'rsatkichlar bo'yicha qiyoslashga qaratilgan tahliliy yondashuvdir. Malaka talabidagi ushbu kompetensiyalar talabalarda analitik fikrlash, texnologik benchmarking ko'nikmalarini shakllantiradi.

Axborotlashtirilgan ta'lim muhiti buni Power BI, Tableau, MATLAB Comparison Toolbox kabi tahliliy vositalar orqali amalga oshirish imkonini beradi. Zamonaviy muhandislik hamda Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish bakalavriat yo'nalishining malaka talablarida keltirilgan kasbiy kompetensiyalari (2-jadval):

2-jadval: Zamonaviy muhandislik atamaları va malaka talablarida keltirilgan kasbiy kompetensiyalar

Zamonaviy muhandislik atamasi	Ta'rif	Malaka talablarida keltirilgan kasbiy kompetensiyalar
Tannarh muhandisligi (Cost Engineering)	Mahsulot, xizmat yoki loyiha qiymatini aniq hisoblash, tahlil qilish va optimallashtirish bilan shug'ullanuvchi muhandislik yo'nalishidir	- ishlab chiqarish jarayonlarining iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish va optimallashtirish; - texnologik jarayonlar uchun resurslar (xom ashyo, energiya, vaqt) sarfini hisoblash; - loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish.
Qiyoslash muhandisligi (Benchmarking Engineering)	Turli texnik tizimlar, konstruktsiyalar, uskunalar, ishlab chiqarish jarayonlari yoki texnologiyalarni solishtirish va tahlil qilish orqali ularning eng samarali, ishonchli va iqtisodiy jihatdan foydali variantini aniqlashga qaratilgan muhandislik yo'nalishidir	- texnologik jarayonlarni tahlil qilish va ularni ilg'or xorijiy tajriba bilan qiyoslash; - standartlashtirish va sertifikatlashtirish talablari asosida ishlab chiqarish sifatini baholash; - yangi texnologiyalarni mavjud tizimlarga tatbiq etish imkoniyatlarini aniqlash.
"Qayta muhandislik" (Reverse Engineering)	Tayyor mahsulot, uskuna yoki tizimning tayyor shaklidan boshlab uning tuzilishi, ishlash prinsipi va texnik hujjatlarini tahlil qilib, asl loyihasini qayta tiklash ko'nikmasidir	- ishlab chiqarish yoki boshqaruv jarayonlarini tubdan qayta loyihalash; - texnologik jarayonlarda mehnat unumdorligini oshirish uchun zamonaviy avtomatlashtirish tizimlarini joriy etish; - innovatsion texnologiyalar asosida ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish.

XULOSA

Qayta muhandislik (Reverse Engineering) – bu tayyor mahsulot, uskuna yoki tizimning tayyor shaklidan boshlab uning tuzilishi, ishlash prinsipi va texnik hujjatlarini tahlil qilib, asl loyihasini qayta tiklash ko'nikmasidir. Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish hamda boshqarish bakalavriat yo'nalishining malaka talablariga mos keladigan kompetensiyalar:

- ishlab chiqarish yoki boshqaruv jarayonlarini tubdan qayta loyihalash;
- texnologik jarayonlarda mehnat unumdorligini oshirish uchun zamonaviy avtomatlashtirish tizimlarini joriy etish;
- innovatsion texnologiyalar asosida ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish.

Qayta muhandislik – bu ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish yoki boshqaruv tizimlarini sifat, tezlik va tannarx bo'yicha tubdan yaxshilashga qaratilgan strategiya bo'lib, malaka talabida keltirilgan kompetensiyalar bu yo'nalishda talabalarni ijodiy muhandislik yondashuviga tayyorlaydi. Axborotlashtirilgan ta'lim muhiti buni BPMN modellashtirish vositalari (Bizagi, ARIS) va simulatsiya dasturlari (Arena, AnyLogic) orqali qo'llab-quvvatlaydi. Bo'lajak muhandislarda kasbiy mahoratni rivojlantirish, nostandard fikrlash qobiliyati, tezkor va aniq qarorlar qabul qilish, muammolarni tanqidiy fikrlash, xatti-harakatlar va o'z faoliyatini boshqarish qobiliyati, turli manbalar bilan ishlash ko'nikmalari hamda raqobatbardoshlik kabi kasbiy sifatning shakllanishi muhandislarning raqobatbardoshligini oshirishda alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xasanboyev J., To'raqulov X.A., Xaydarov M., Xasanboyeva O., Usmonov N.O'. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – 672 b.
2. Axmedov J.R. Muhandis-pedagoglarning innovatsion faoliyatini shakllantirishda axborot texnologiyalarining o'rni. – Jizzax: JizPI tipografiyasi MChJ, 2021. – 140 b.
3. Axmedov J.R. Tizimli tahlil: Darslik. UO'K 303.732. – Jizzax: Ilm nuri print MChJ, 2023.
4. Axmedov J.R. Axborotlashtirilgan ta'lim muhitida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish. PhD dissertatsiya. – T.: 2020. – 160 b.
5. Axmedov J.R. Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning harakatlar strategiyasi. // "Ta'lim, fan va innovatsiya" ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. – T., 2019. – №2. – B. 68-74.
6. To'raqulov O.X., Axmedov J.R., Xamzayev X.Q. Technology of organizing "Interactive Communication Platform". Eastern European Scientific Journal, Ausgabe 3, 2018. – P. 297-304.
7. Yang C.Y., Chung T.Y., Hwang M.S., Li C.Y., Yao J.F.J. Learning performance evaluation in e-learning with the web-based assessment. In: Kim K., Joukov N. (eds) Information Science and Applications 2017. ICISA 2017. Lecture Notes in Electrical Engineering. Springer, Singapore, 2017. – 424 p.
8. Griffin D.S. Situating Web Searching in Data Engineering: Admissions, Extensions, Repairs, and Ownership. A dissertation submitted in partial satisfaction of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy in Information Science, Graduate Division, University of California, Berkeley, 2022. – 169 p.
9. Clément B. Adaptive Personalization of Pedagogical Sequences using Machine Learning. Artificial Intelligence [cs.AI]. Université de Bordeaux, 2018. – 139 p.
10. Қаямова Н.А. Электрон таълим муҳитида бўлажак информатика ўқитувчиларини интегратив ёндашув асосида тайёрлаш методикасини такомиллаштириш. Педагогика фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2022. – 70 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.